

МАКТАВ BITIRUVCHILARINI KASBGA YO‘NALTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

Boltayeva Dildora Amirovna

Samarqand viloyati Kattaqurg‘on tuman

MMTBga qarashli 40-sonli umumiy o‘rta

ta‘lim maktab texnologiya fani o‘qituvchisi

Annotasiya: Mazkur maqolada o‘quvchilarning kasb tanlash jarayonida duch kelayotgan muammolari, bu boradagi psixologik, ijtimoiy va pedagogik omillar, shuningdek, ushbu muammolarni bartaraf etishning samarali yo‘llari ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Maktab bitiruvchilarini kasbga yo‘naltirish bo‘yicha mavjud yondashuvlar va tajribalar tahlil qilinib, pedagogik-psixologik tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish, maktab bitiruvchisi, kasbiy qiziqish, psixologik tayyorgarlik, pedagogik yordam, ota-onas roli, kasb tanlash muammolari.

S‘nggi yillarda mamlakatimizda ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, o‘quvchilarning kasb-hunarga yo‘naltirilishini ta‘minlashga qaratilgan tizimli yondashuvlar o‘z samarasini bera boshladi. Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi tomonidan qabul qilingan qarorlar asosida 208 ta umumiy o‘rta ta‘lim muassasasida o‘quvchilarga kasb-hunar o‘rgatish jarayonlari yo‘lga qo‘yildi. Ushbu maktablarda o‘quvchilar quyidagi uch yo‘nalishda kasbiy ko‘nikmalarni egallash imkoniyatiga ega bo‘lmoqda:

1. **Ishchi kasblar yo‘nalishi** – hududning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatidan kelib chiqib, hunarmandlar va tadbirkorlar ishtirokida 64 turdagи kasblar o‘rgatiladi.

2. **Tadbirkorlik yo‘nalishi** – ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning 21 turi.
3. **Zamonaviy kasblar yo‘nalishi** – axborot texnologiyalari va kreativ industriya bo‘yicha 10 dan ortiq yo‘nalish.

2024–2025 o‘quv yilida 17 mingdan ortiq o‘quvchini kasb-hunarga jalg etish rejalashtirilgani ta’lim tizimidagi kasbga yo‘naltirish masalalariga qanchalik jiddiy e’tibor berilayotganini ko‘rsatadi. Shunga qaramay, maktablarda o‘quvchilarning kasb tanlashiga oid muammolar hanuzgacha dolzarb bo‘lib qolmoqda. Maktab bitiruvchilari ko‘pincha kasblar haqida yetarli bilimga ega bo‘lmay, tasodifiy yoki boshqa omillarga asoslangan tanlovlardan qilishadi. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kasb tanlashdagi asosiy muammolar

Kasb tanlash jarayonida o‘quvchilar duch keladigan muammolarni quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

- **Axborot tanqisligi** – o‘quvchilarda kasblar haqida to‘liq va ishonchli ma’lumotlar bo‘lmaydi.
- **Psixologik tayyorgarlik yetishmasligi** – o‘z qiziqishlari, qobiliyatlarini anglay olmaslik.
- **Ijtimoiy bosim** – ota-onalar, do‘sstlar, jamoatchilik ta’siri ostida qabul qilingan qarorlar.
- **Moddiy manfaatdorlikka ortiqcha urg‘u** – ma’naviy ehtiyojlar emas, faqat moliyaviy motiv asosida tanlov qilish.

Akademik V.A. Krutetskiy tomonidan o‘spirinlar orasida uchraydigan kasb tanlash motivlari orasida quyidagilar keltiriladi:

- ✓ muayyan fanlarga qiziqish;
- ✓ Vatanga foyda keltirish istagi;
- ✓ shaxsiy qobiliyatlarni ro‘yobga chiqarish;

- ✓ oilaviy kasb an'analariga rioya etish;
- ✓ do'starning tanloviga ergashish;
- ✓ yashash joyiga yaqinlik;
- ✓ moddiy ta'minot darajasi;
- ✓ o'quv yurtining tashqi ko'rinishi yoki qulay joylashuvi.

Bu motivlarning har biri ma'lum darajada ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, o'quvchiga kasb tanlashda maqsadli va ongli yondashuvni shakllantirish zarur.

Muammolarni bartaraf etish yo'llari

Kasb tanlashdagi muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim hisoblanadi:

- ☞ **Kasblar olami bilan tanishtirish** – maktablarda kasblar yarmarkasi, uchrashuvlar, mahorat darslarini yo'lga qo'yish.
- ☞ **Psixologik maslahatlar** – maktab psixologi tomonidan qiziqish va qobiliyatlarni aniqlash bo'yicha testlar o'tkazish.
- ☞ **Ota-onalar bilan hamkorlik** – ota-onalarni farzandlari kasb tanloviga ongli yondashishga o'rgatish.
- ☞ **Mentorlik tizimi** – kasbi bo'yicha muvaffaqiyatga erishgan mutaxassislarni maktablarga jalb etish.

Bundan tashqari, maktab darsliklarida ham kasb tanlash mavzusini muqim yoritib borish va yuqori sinf o'quvchilari uchun kasb tanlash bo'yicha maxsus fan joriy qilish taklif etiladi.

Bundan tashqari boshqa motivlar ham masalan, o'quvchining biror kasbga, fanga moyilligi, maqsadi, unga intilishi, kasb to'g'risidagi ma'lumoti ham sabab bo'lishi mumkin. Maktab bitiruvchilarida kasblar haqida yaqol tasavvur bo'lmagligi sababli ular kasb tanlashda ko'proq xatoga yo'l qo'yadilar. Bunga asosiy omil qilib o'z

qobiliyatlarini oqilona baholay olmasligi va u yoki bu kasbni egallash uchun qanchalik tez va aniq harakat qila olishlarini, bu ishga moslasha oishlari mumkinligini bilmasligidir. Anashunday muammolarni oldini olish va bartaraf etish uchun imkoniyatlar mavjud.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ertangi yosh avlodni har tomonlama tarbiyalab, kelajakda komil insonlar bo'lib yetishishlarini ko'zda tutadi.Mustaqilligimizga erishgan yillarimizdanoq yurtimiz ertasi bo'lgan yoshlarga katta e'tibor qaratila boshlandi va ularga birqator keng imkoniyatlar yaratildi. Mamlakatimiz prezidenti Sh.Mirziyoyevning yoshlarnning kasb hunar egallashi borasida bildirgan quyidagi fikrlari ayniqsa etiborga molikdir:

- Mahallalarda 1000 dan ziyod kasb-hunarga o'qitish markazlari tashkil etiladi;
- Kasb-hunarga o'qitilgan har bir shaxs uchun o'quv markazlarida 1 million so'mgacha subsidiya beriladi.Buning uchun budgetdan 100 milliard so'm ajratiladi;
- O'quv kurslarini tamomlab,o'z biznesini boshlamoqchi bo'lgan fuqarolarga uskunalar xarid qilish uchun 7 million so'mgacha subsidiyalar beriladi;

Shuningdek umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilari ta'lim oishlari bilan birgalikda ularga kasb-hunar o'rgatish, o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda kelajakda ularning ta'limini davom ettirishlari yoki egallagan kasblari bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanishlariga sharsharoitlar yaratish bo'yicha chora tadbirlar tashkil qilindi.Ushbu chora tadbirlarga muvofiq umumiy o'rta maktab,akademik litsey bitiruvchilarida aniq bir maqsadli kasbiy motivlarni shakllantirish,kasbga yo'naltirish bo'yicha aniq metodikalar o'tkazish va qaysi kasbga qobiliyatları borligini aniqlash zarur. Chunki hozirgi kunda ko'plab holatlarda farzandlar ota-onalar majburiyatlaridan kelib chiqqan holda kasb tanlashga majbur bo'lib kelmoqda. Bilamizki,ota-onalar o'zlari erisha olmagan kasbini farzandlarida ko'rishni hohlaydi.Bu esa, ertangi kunda farzandlarining majburan tanlagan sohalarida na yutuqqa erisha oishlarini bildiradi na kelajagiga foya berishiga ishonish mumkin.Bunda ,albatta, jamiyatimizda psixologik bilimlarning yetishmasligini takror va takror ko'ramiz.Shuning uchun ham har biro

ota-onal farzandlarini qiziqish va qobilyatlariga e'tiborli bo'lishlari kerak.Farzandlarining kelajagiga bee'tibor bolmasliklari zarur va shart deb hisoblayman.Qiziqish-insonlarning dunyoqarashi,e'tiqodlari,idealari,ya'ni uning oliv maqsadlari,orzu niyatlari,orzu umidlari bilan bevosita muhim rol o'yнaydi hamda ularning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Yosh avlodni kasb-hunarga yo'naltirish orqali, bo'lajak kasbiy qarorlarni shakillantirish, kasbni erkin va mustaqil tanlashlari uchun kasb-hunarga yo'naltirish ishlariga mustahkam zamin yaratuvchi ilmiy-amaliy tizim sifatida qarash lozim. Bu tizim orqali har bir o'quvchi shaxsini kasbga yo'naltirishda individual xususiyatlarni ham xalq manfaatlari nuqtai nazardan mehnat reurslarini to'laqonli ta'minlash zaruratinis hisobga olish kerak. Lekin bugungi kunda umumiy o'rta ta'lif mакtablarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ilmiy amaliy tizimi yetarlicha ishlab chiqilmagan, ilmiy pedagogik asoslari talab darajasida yaratilmagan. Bundan tashqari hozirgi kun talablari asosidagi tezkor yangiliklar, zamonaviy texnologik o'quv qo'llanmalar, dars ishlanmalari, ko'rgazmali vositalarning kamligi,kasb tanlash mezon va me'yorining belgilanganligi, kasb tanlash bo'yicha tezkor aloqning o'rnatilmaganligi kabi muammolar dolzarb masalardan biridir. Kasb tanlash uchun o'quvchi o'z imkonoyatlarini baholay olish ko'nikmasiga, ya'ni qiziqishi mos kasblar bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishi, bu kasblarning imkoniyatlari, kelajagi haqida axbort va yangiliklardan xabrdor bo'lishi zarur. Kasbga yonaltirishda har bir shaxsning individual xususiyatlari, qiziqishlarini, shuningdek, jamiyatning qaysidir kasbga nisbatan ehtiyojini ta'minlash zarurligini inobatga olgan holda tanlashni taqozo etadi. Kasbga to'g'ri yonaltirish shaxsning hayotida to'g'ri yo'lni topishiga imkon beradi. O'quvchilarni mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlash va ularning kasb-hunarni o'zlarining qobiliyatlariga yarasha to'ri tanlashlariga erishish uchun mакtab o'qituivchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, perceptiv, akademik, kommunikativ kabi qobiliyatlarini yuqori bo'lishi, kasblar bilan bog'liq fan to'garaklarining faoliyatini rivojlantirish, mакtablarda kasb - hunar to'risidagi ma'ruzalarni tashkillash o'z natijasini beradi, shuningdek, mакtablarda " Kasbim

faxrim", "Kasbim kelajagim dasturi" kabi mavzularda seminar - trening mashg'ulotlari, suhbatlar va munozaralar o'tkazilishi, uchrashuvlar, kasb - hunarga oid ko'rgazmalar tashkil etilishi, o'quvchilarda kasb tanlashga qiziqish hamda ishtiyoqini uyg'otadi. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish ishlari maktab rahbariyati bilan birgalikda mакtabning amaliy psixologи, kasbga yo'naltiruvchi mutaxassislar va o'qituvchilar bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Xulosa

Kasb tanlash — bu nafaqat shaxsiy qaror, balki jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shuvchi muhim bosqichdir. Shu bois, mакtab davridan boshlab o'quvchilarni kasbiy yo'naltirish bo'yicha kompleks yondashuv zarur. Ota-onalar, pedagoglar, psixologlar va jamiyatning boshqa vakillari birgalikda harakat qilgan holda, yoshlarni to'g'ri kasb tanlashga yo'naltira oladi. Bunday yondashuv nafaqat individual muvaffaqiyat, balki ijtimoiy barqarorlik uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Krutetskiy V.A. "Psixologiya", Moskva, 1984.
2. Abduqodirov A. "Kasb tanlash psixologiyasi", Toshkent, 2017.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-apreldagi PQ-111-sonli qarori.
4. Maktabgacha va mакtab ta'limi vazirligi axborot xizmati, 2024.
5. Karimova M., "Kasbga yo'naltirishda zamonaviy yondashuvlar", Ilm-fan nashriyoti, 2022.